

**O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY
BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI****Raxmonova Shoxista Sherqulovna**

“International school of finance technology and science” institute

2-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 2020–2024 yillar kesimida konsolidatsiyalangan budjet daromadlari va xarajatlari, mahalliy budjetlar ijrosi hamda hududlar bo‘yicha budjet xarajatlari ulushi statistik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, mamlakatda budjet daromadlari barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, ayrim yillarda xarajatlarning tezroq oshishi budjet defitsitining kengayishiga olib kelgani aniqlandi. Shuningdek, hududlar kesimida budjet xarajatlari ulushining sezilarli farqlanishi hududlarning iqtisodiy salohiyati, demografik omillari va infratuzilma rivojlanish darajasi bilan bog‘liq ekanligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda fiskal barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mahalliy budjetlar, fiskal barqarorlik, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, konsolidatsiyalangan budjet, hududiy rivojlanish, fiskal siyosat, budjet defitsiti, tashabbusli budjet, moliyaviy mustaqillik.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash davlat moliyaviy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budjetlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda aholi turmush darajasini oshirishda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Shu sababli mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish, ularning xarajatlarini samarali boshqarish va fiskal barqarorlikni ta’minlash masalalari ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish, hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirish,

tashabbusli budget mexanizmini joriy etish hamda hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy budget daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik, ayrim hududlarda moliyaviy resurslarning yetarli emasligi hamda budget xarajatlarining tez sur‘atlarda o‘sishi fiskal barqarorlikka ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli mahalliy budgetlar moliyaviy barqarorligini tahlil qilish, hududlar kesimida budget xarajatlari tarkibini o‘rganish hamda ularni optimallashtirish masalalari alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Mahalliy budgetlar mahalla, tuman yoki shahar darajasida shakllantiriladigan va shu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan moliyaviy manbalar majmuasi hisoblanadi. Ular mintaqaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda, lokal infratuzilma rivojida va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim o‘rinni egallaydi. Uzbekistan kontekstida, markaziy budgetga tayanadigan moliyaviy tizimdan bosqichma-bosqich o‘tib, mahalliy budgetlar mustaqilligi va ularning moliyaviy barqarorligi ustuvor masalaga aylanmoqda.


Konsolidatsiyalangan budget daromadlari va xarajatlari (2020–2024 yillar kesimida)

Yil	Daromadlar (mlrd. so‘m)	Xarajatlar (mlrd. so‘m)
2020	160,394	186,483
2021	203,178	245,477
2022	258,067	291,897
2023	321,017	317,665
2024*	~386,567 (prog) / 385,800 (ma’lum)	~433,000 (prog) /taxminan 433,600

Manba: <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2024/210/article-A001-en.xml>

2020–2024 yillar davomida O‘zbekistonning konsolidatsiyalangan budjeti daromad va xarajatlari muntazam o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. 2020 yilda daromadlar 160,4 trillion so‘mni, xarajatlar esa 186,5 trillion so‘mni tashkil etdi. Bu holat budjetda sezilarli defitsit mavjudligini ko‘rsatdi, chunki xarajatlar daromaddan ancha yuqori bo‘ldi. 2021 yilda daromadlar 203,2 trillion so‘mgacha oshib, salmoqli o‘shishga erishildi, biroq xarajatlar 245,5 trillion so‘mga yetib, daromadlarni ortda qoldirdi va defitsit yana kengaydi. 2022 yilda ham xuddi shunday vaziyat kuzatildi: daromadlar 258,1 trillion so‘m bo‘lsa, xarajatlar 291,9 trillion so‘mni tashkil etdi. Bu

davrda xarajatlar daromadlarnikidan sezilarli darajada yuqoriligicha qoldi va fiskal barqarorlikka bosim davom etdi. 2023 yilda esa vaziyat bir oz o'zgardi — daromadlar 321,0 trillion so'mga yetib, xarajatlar 317,7 trillion so'mni tashkil etdi. Bu, birinchi marta kuzatilganidek, xarajatlarning daromaddan past bo'lishi natijasida budget defitsiti deyarli yo'qolishga yaqinlashdi va fiskal siyosat samaradorligi oshganini ko'rsatdi. Biroq 2024 yilda qayta pasayish tendensiyasi kuzatildi: prognozlarga ko'ra daromadlar 386,6 trillion so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda, Trend.uz ma'lumotlariga ko'ra esa 385,8 trillion so'mga yetgan, xarajatlar esa taxminan 433,6 trillion so'mni tashkil etgan. Demak, xarajatlar yana daromaddan yuqoriga chiqdi va budget defitsiti qayta kengaydi. Bu davr mobaynida daromadlarning barqaror o'sishi soliq bazasining kengayishi, iqtisodiy faoliyatning jonlanishi va fiskal siyosat choralarning samaradorligini ko'rsatadi. Ammo xarajatlar hajmining ham shunga mutanosib, hatto ayrim yillarda undan tezroq o'sishi fiskal barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi. 2023 yilda kuzatilgan ijobiy muvozanat qisqa muddatli bo'ldi, 2024 yilda esa xarajatlarni nazorat qilishdagi sustlik sabab defitsit yana kengaydi. Shunday qilib, mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun xarajatlarni qat'iyroq boshqarish, daromadlarni diversifikatsiya qilish va mahalliy budgetlarning o'zini o'zi ta'minlash qobiliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.



2020–2024 yillar kesimida mahalliy budget daromad va xarajatlari

Manba: <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2024/210/article-A001-en.xml>

2020–2024 yillar davomida O'zbekiston mahalliy budgetining daromad va xarajatlari chiziqli grafikda aniq ko'rinadigan barqaror o'sish trendiga ega bo'ldi,

ammo har yili xarajatlarning daromadlarga nisbatan o'zgarishi fiskal barqarorlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. 2020 yilda daromadlar 160,4 trillion so'm, xarajatlar esa 186,5 trillion so'm bo'lib, budget defitsiti 26,1 trillion so'mni tashkil etdi. Bu yil pandemiya ta'siri ostida iqtisodiy faollik pasaygani, soliq tushumlarining qisqargani va ijtimoiy hamda tibbiy xarajatlarning oshgani sabab fiskal bosim kuchli bo'ldi. 2021 yilda iqtisodiy faollik tiklana boshladi, daromadlar 203,2 trillion so'mga yetdi, ammo xarajatlar 245,5 trillion so'm bo'lib, defitsit 42,3 trillion so'mga kengaydi. 2022 yilda iqtisodiy o'sish davom etdi, daromadlar 258,1 trillion so'mga yetdi, lekin xarajatlar 291,9 trillion so'mga chiqib, defitsit 33,8 trillion so'm bo'ldi. 2023 yilga kelib, moliyaviy boshqaruv siyosatida xarajatlarni nazorat qilish va daromadlarni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar sezilarli natija berdi — daromadlar 321,0 trillion so'mga yetib, xarajatlar 317,7 trillion so'mni tashkil etdi va budget deyarli muvozanatlashdi, hatto 3,3 trillion so'mlik ortiqcha qoldiq kuzatildi. Bu ijobiy holat mahalliy budget barqarorligi bo'yicha qisqa muddatli yutuq sifatida baholandi. Biroq 2024 yilda xarajatlarning keskin oshishi yana defitsit xavfini kuchaytirdi: daromadlar 385,8 trillion so'm bo'lsa, xarajatlar 433,6 trillion so'mga chiqdi va defitsit 47,8 trillion so'mga yetdi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, daromadlar har yili o'sib borgan, ammo xarajatlarning ham shunga mutanosib yoki undan tezroq o'sishi fiskal muvozanatni izdan chiqargan. Xususan, 2020–2022 yillarda defitsit doimiy ravishda saqlangan, 2023 yilda esa qisqa muddatli muvozanatga erishilgan, lekin 2024 yilda bu natija saqlanib qolmadi. Bu esa kelgusida mahalliy budgetni barqarorlashtirish uchun xarajatlarni optimallashtirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va budget intizomini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

2.1-jadvalda mamlakatimizning mahalliy budgetlari tarkibidagi daromadlar va xarajatlar bo'yicha eng yirik hududi hisoblangan Toshkent shahri ma'lumotlari keltirilgan. Jadval ma'lumotlarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Toshkent shahri mahalliy budgetini rejalashtirish va ijro etish natijalari tahlili, (mlrd so'm)

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Budget daromadlari					
Reja	3 109,1	2 700,0	3 832,6	6 184,7	7 410,0
Ijro	3 752,8	3 156,0	4 911,4	7 073,2	8 112,0
Miqdorani farqi (ijro-reja)	643,7	456,0	1 078,8	888,5	372,7

Nisbatan (ijro/reja)	120,7	116,9	128,1	114,4	104,8
Budjet xarajatlari					
Reja	4 334,1	4 826,2	6 566,4	8 142,7	9 362,2
Ijro	4 885,2	5 349,7	8 876,7	10 328,5	10 364,1
Miqdorani farqi (ijro-reja)	1 776,1	523,5	2 310,3	2 185,8	1 001,9
Nisbatan farqi (ijro/reja)	157,1	110,8	135,2	126,8	110,7
Farqi (+ / -)					
Reja	-1 225,0	-2 126,2	-2 733,8	-1 958,0	-1 622,9
Ijro	-1 132,4	-2 193,7	-3 965,3	-3 255,3	-2 252,1

Manba: <https://openbudget.uz> - ochiq budjet sayti ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi. Murojaat qilingan sana 2024 yil 19 may.

Respublika budjeti xarajatlarining asta sekinlik bilan mahalliy budjetlarga o'tkazilishi ularning moliyaviy mustaqilligida muhim omil hisoblangan xarajatlar vakolatlarini kengaytirish sifatida ijobiy tendensiya hisoblanadi. Bunda albatta mahalliy hokimliklarning vakolatlari bilan birga aholi oldidagi majburiyatlari yoki aholi bilan muloqotni yo'lga qo'yilishiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Fikrimizcha, tashabbusli budjet tizimi moliyaviy dastaklarga ega bo'lgan mahalliy hokimiyat va aholi muloqotini yo'lga qo'yilishining eng samarali namunasi sifatida qaralishi tadqiqotimiz uchun ham muhimdir. Shu ma'noda mahalliy budjet xarajatlari bo'yicha vakolatlarni kengaytirishda o'ziga xos kamaytirib turuvchi va manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi tizim sifatida mamlakatimizdagi tashabbusli budjet amaliyotini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mahalliy budjetlar xarajatlari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hududlar kesimidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat davlat moliyaviy resurslarining taqsimlanish darajasini, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muvozanatli yoki nomuvozanatli ekanligini aniqlash imkonini beradi. Har bir viloyat va respublika hududida budjet xarajatlari ulushining o'zgarishi hududning iqtisodiy faolligi, ishlab chiqarish salohiyati, ijtimoiy infratuzilmasi va aholi soni bilan bevosita bog'liqdir.

2020–2024 yillar oralig'idagi ma'lumotlar tahlili mahalliy budjetlar xarajatlarining hududlar kesimidagi nisbatlarida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu farqlar turli hududlarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari hajmi,

infratuzilma rivojlanishi, ijtimoiy soha ehtiyojlari va demografik omillar bilan izohlanadi.

Mahalliy budjetlar xarajatlari to‘g‘risida ma’lumot (jamiga nisbatan foizda)

Hududlar / yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6,8	7,5	7,5	7,2	6,8
Andijon viloyati	8,5	8,6	7,9	8	8,3
Buxoro viloyati	5,7	5,9	6,6	5,9	5,9
Jizzax viloyati	4,5	4,9	4	4,2	4,5
Qashqadaryo viloyati	8,7	8,5	9,8	10,3	9,7
Navoiy viloyati	3,9	4,4	4,2	3,8	3,8
Namangan viloyati	7,7	7,5	8,2	8,1	8,1
Samarqand viloyati	10,3	9,9	8,8	9,1	9,6
Surxondaryo viloyati	7,4	7,1	6,9	7	7,8
Sirdaryo viloyati	3,2	3,3	5	3,2	3,1
Toshkent viloyati	8,1	8,1	7,2	7,5	7,7
Farg‘ona viloyati	10,3	9,5	8,8	9,5	9,8
Xorazm viloyati	5,5	5,2	5,2	5,3	5,4
Toshkent shahri	9,3	9,8	11,2	10,1	10,6

Manba: www.mf.uz – rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent shahri har yili eng yuqori ulushlardan birini egallab kelgan bo‘lib, 2020 yilda 9,3%, 2024 yilda esa 10,6% ulush qayd etilgan. Bu poytaxtning iqtisodiy markaz sifatidagi o‘rni, yuqori aholi zichligi va rivojlangan infratuzilmasi bilan izohlanadi.

Farg‘ona viloyati ham yuqori ulushga ega bo‘lib, 2020 yildagi 10,3% ko‘rsatkich 2024 yilda 9,8% darajasida saqlanib qolgan. Bu hudud aholisi sonining ko‘pligi va iqtisodiy faol sektorlarning keng rivojlanganligi bilan bog‘liq.

Samarqand viloyati 2020 yildagi 10,3% ulushdan 2024 yilda 9,6% gacha pasaygan. Bu hududda investitsion faollik yuqori bo‘lsa-da, boshqa hududlar ulushining oshishi natijasida umumiy nisbat biroz kamaygan.

Qashqadaryo viloyati 2022 yilda 8,7% bo‘lsa, 2023 yilda 10,3% gacha oshgan, biroq 2024 yilda 9,7% gacha pasaygan. Bu o‘zgarish neft-gaz va sanoat loyihalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan bog‘liq.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ulushi 2020 yildagi 6,8% darajadan 2022 yilda 7,5% ga yetgan bo‘lsa-da, 2024 yilda yana 6,8% gacha tushgan. Ushbu hududning iqtisodiy faoliyati ko‘proq davlat investitsiyalariga bog‘liq.

Jizzax viloyati eng past ulushlardan biriga ega bo‘lib, yillar davomida 4,2–4,9% oralig‘ida saqlanib qolgan. Bu hududning iqtisodiy va infratuzilma salohiyati boshqa viloyatlarga nisbatan pastroq ekanini ko‘rsatadi.

Sirdaryo viloyati ham past ulushga ega bo‘lib, 2020 yildagi 3,2% ko‘rsatkich 2024 yilda 3,1% darajasida qayd etilgan. Bu hudud kichik maydon va aholiga ega bo‘lgani uchun umumiy budjet xarajatlari ulushi pastligicha qolmoqda.

Qolgan hududlar, jumladan Andijon, Namangan, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlarida ko‘rsatkichlar nisbatan barqaror bo‘lib, yillik o‘zgarishlar 0,1–0,8% diapazonda bo‘lgan.

2020–2024 yillar davomida mahalliy budjet xarajatlari hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlarga ega bo‘lib qolmoqda. Yirik sanoat, savdo va xizmat ko‘rsatish markazlariga ega hududlarda ulush yuqori bo‘lsa, kichik hududlarda ulush nisbatan past. Ushbu tafovutlarni kamaytirish uchun kichik hududlarda infratuzilma loyihalarini kengaytirish, iqtisodiy faol sektorlarni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish zarur.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida konsolidatsiyalangan hamda mahalliy budjet daromadlari barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. Bu holat mamlakat iqtisodiyotining bosqichma-bosqich rivojlanishi, soliq bazasining kengayishi hamda fiskal siyosat choralarining samaradorligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim yillarda budjet xarajatlarining daromadlarga nisbatan tezroq oshishi budjet defitsitining kengayishiga sabab bo‘lgan.

Hududlar kesimidagi tahlillar mahalliy budjet xarajatlari ulushida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda budjet xarajatlari ulushi yuqori bo‘lsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past hududlarda ushbu ko‘rsatkichlar pastroq darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasining mahalliy budjetlar shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun budjet xarajatlarini optimallashtirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tashabbusli budjet tizimini rivojlantirish orqali mahalliy hokimiyat organlari va aholi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish mumkin.

Umuman olganda, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mamlakat fiskal siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon hududiy iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xudoyqulov S.K. Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash masalalari. – T.: 2021.
 2. Qobulov X.A. Hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari. – T.: 2022.
 3. Islomkulov A.X. Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yo'llari. – T.: 2020.
 4. Ollokulova F.M. Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishning iqtisodiy asoslari. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2021, №4.
 5. Usmonov Q.A. Budjet daromadlarini prognozlashtirish metodologiyasi. // Moliyaviy tahlil jurnali, 2022, №3.
 6. Musgrave R. The Theory of Public Finance. – New York: McGraw-Hill, 1959.
 7. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
 8. Balassone F., Franco D. Public Investment, the Stability Pact and the 'Golden Rule'. – Fiscal Studies, 2000.
 9. Boyne G.A. Sources of Public Service Improvement. – Public Administration Review, 2002.
 10. Burnside C. Fiscal Sustainability in Theory and Practice. – World Bank Policy Research Paper, 2005.
 11. Levina V.V., Nikitkova U.O. Finansovaya ustoychivost byudzheta. – Moskva, 2019.
 12. Sabitova N.M., Tuxhatullin R.R. Otsenka finansovoy ustoychivosti regionalnykh byudzhetrov. – Kazan, 2018.
- Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson Education, 2022.